

TIBBIY MATNLARDA METAFORIK MODELLAR VA ULARNING DISKURSIV XUSUSIYATLARI

Sapayeva Dilfuza Narbayevna

Osiyo Xalqaro universiteti Xorazm filiali

Ijtimoiy fanlar va filologiya kafedrasi professor v.b. PhD.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22723331>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tibbiyot diskursida metaforik modellar va ularning kommunikativ, kognitiv hamda pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, metaforalarning shifokor–bemor muloqotidagi axborot yetkazish, emotsional ta'sir ko'rsatish, murakkab tibbiy tushunchalarni soddalashtirish va bemorning kasallik haqidagi konseptual tasavvurini shakllantirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar:

tibbiyot diskursi, metafora, metaforik model, konseptual metafora, kognitiv lingvistika, shifokor–bemor muloqoti, kasallik, salomatlik, freym.

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslikda metafora faqat badiiy nutqqa xos stilistik vosita sifatida emas, balki insonning borliqni anglash, kategoriyalash va konseptuallashtirish jarayonida faol qatnashuvchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, tibbiyot diskursida metaforaning ahamiyati katta, chunki inson organizmida kechadigan ko'plab fiziologik va patologik jarayonlar murakkab, mavhum hamda bevosita kuzatilishi qiyin bo'lgan hodisalardir. Ularni bemor uchun tushunarli tarzda izohlash jarayonida tibbiyot mutaxassislari turli metaforik modellar yordamiga murojaat qiladilar.

Adabiyotlar sharhi. Metaforaning kognitiv tabiati J. Lakoff va M. Johnsonning "*Metaphors We Live By*" asarida asoslab berilgan. Tibbiyot diskursida metaforalarning qo'llanilishi S. Sontagning "*Illness as Metaphor*", E. Seminoning "*Metaphor in Discourse*", J. Charteris-Blackning "*Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis*" hamda A. Musolfning "*Political Metaphor Analysis: Discourse and Scenarios*" asarlarida turli jihatlaridan tadqiq etilgan.

Muhokama va natijalar. Tibbiyot diskursi materiallarini konseptual-metaforik jihatdan tahlil qilish bir qator barqaror metaforik modellar mavjudligini ko'rsatadi.

"Kasallik-dushman" metaforik modeli tibbiyot diskursida eng faol modellardan biri hisoblanadi. Ushbu modelda kasallik inson organizmiga tashqaridan bostirib kiruvchi, unga zarar yetkazuvchi dushman sifatida gavdalantiriladi. Masalan:

The virus attacks the immune system.

The disease invaded several organs.

The body is fighting the infection.

Bu model patologik jarayonning faol va xavfli tabiatini ifodalash bilan birga, bemorni davolanishga undash vazifasini ham bajaradi.

"Davolash-kurash" modelida kasallik dushman, shifokor va bemor esa unga qarshi kurashuvchi tomon sifatida tasvirlanadi. *Fighting cancer, battling the infection* kabi birliklar

bemorni ruhlantirishi mumkin, biroq ayrim holatlarda “kurashda yutqazish” mazmuni salbiy psixologik ta’sir ko’rsatishi ham ehtimoldan xoli emas.

“Inson tanasi-mexanizm” modelida organizm texnik tizimga o’xshatiladi: yurak nasos, buyrak filtr, miya axborotni qayta ishlovchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Bu model murakkab fiziologik jarayonlarni soddada va tushunarli shaklda izohlashga yordam beradi.

“Organizm-tizim” modelida esa inson tanasi o’zaro bog’langan va boshqariladigan murakkab tizim sifatida konseptuallashtiriladi. *Immune system, hormonal regulation, nervous system breakdown* kabi ifodalar ushbu modelning namunasidir.

“Kasallik-sayohat/yo’l” metaforik modeli, ayniqsa, uzoq davom etuvchi va surunkali kasalliklarni tasvirlashda qo’llaniladi. Bunda kasallik jarayoni yo’l, davolash bosqichlari esa safarning muayyan manzillari sifatida ifodalanadi. *Road to recovery* va *a long journey* kabi birliklar bunga misol bo’la oladi.

“Salomatlik-muvozanat” modelida sog’lom holat organizmdagi muvozanat, kasallik esa ushbu muvozanatning buzilishi sifatida talqin qilinadi. Davolashning vazifasi esa bu muvozanatni tiklashdan iborat deb qaraladi.

“Inson tanasi-hudud/qal’a” modelida organizm himoya qilinadigan hudud, immun tizimi mudofaa kuchi, virus va boshqa kasallik qo’zg’atuvchilar esa bosqinchi sifatida konseptuallashtiriladi. Ushbu model infeksiya kasalliklari, immunologiya va onkologiya diskursida ayniqsa faol uchraydi. Mazkur metaforik modellar murakkab tibbiy hodisalarni soddalashtirish, bemorga tushunarli tarzda yetkazish va kasallik hamda davolanish jarayonini konseptual jihatdan anglashga xizmat qiladi. Mazkur modellar bir tomondan murakkab tibbiy tushunchalarni soddalashtirish va bemorga tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan shaxsning kasallik va davolanish haqidagi konseptual manzarasini shakllantiradi.

Xulosa. Metaforalar tibbiy axborotning kognitiv qayta ishlanishini yengillashtiradi, shifokor-bemor o’rtasidagi kommunikativ aloqani mustahkamlaydi hamda emotsional-pragmatik ta’sirni ta’minlaydi. Tibbiyot diskursidagi metaforik modellarni qo’llashda ularning pragmatik oqibatlarini ham hisobga olish zarur. Bir metaforik model turli bemorlar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Shu bois zamonaviy bemorga yo’naltirilgan tibbiy kommunikatsiyada metaforani kommunikantning individual va psixologik xususiyatlariga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Charteris-Black, J. *Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis*. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004.
2. Gibbs, R. W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
3. Kövecses, Z. *Metaphor: A Practical Introduction*. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
4. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
5. Lakoff, G., Turner, M. *More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*. – Chicago: University of Chicago Press, 1989.
6. Musolff, A. *Metaphor and Political Discourse: Analogical Reasoning in Debates about Europe*. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004.
7. Musolff, A. *Political Metaphor Analysis: Discourse and Scenarios*. – London: Bloomsbury Academic, 2016.
8. Semino, E. *Metaphor in Discourse*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.